

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISH METODIKASI FANIDAN KO‘RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH**

Jaxongir Tursunov

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi  
kafedrasи o‘qituvchisi

Muxtaram To‘Xtamishova

TerDPI Boshlang‘ich ta’lim fakulteti  
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolani yozishdan maqsad, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasida ko‘rgazmali qurollardan foydalanishning o‘rni haqida yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** metodika, ona tili o‘qitish metodikasi, o‘qish metodikasi, grammatika, fonetika, ko‘rgazmali qurollar , vositalar, o ‘qituvchi, ta’lim oluvchi.

### **Abstract:**

The purpose of writing this article is to highlight the role of using visual aids in the method of teaching the mother tongue in primary classes.

**Key words:** mother tongue teaching methodology, methodology, reading methodology, grammar, phonetics, visual aids, tools, teacher, student.

### **Аннотация:**

Цель написания данной статьи – осветить роль использования наглядных пособий в методике обучения родному языку в начальных классах.

**Ключевые слова:** методика преподавания родного языка, методика, методика чтения, грамматика, фонетика, наглядное пособие, инструментарий, учитель, ученик.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo‘lib, u tekshiradigan masalalarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatadi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatish yo’llari va vositalari, usullari, ona tilini egallash, ya’ni nutqni, o‘qish va yozishni, grammatika va imloni o‘zlashtirib olish demakdir.

Metodika esa maktab oldiga qo'yilgan ta'lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning mazmunini va maqsad, vazifalarini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, shu faoliyatning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullari va vazifalarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi. Bilamizki barcha darsalarda ko'rgazmali qurollardan foydalanish qanchalik muhum bo'lsa ona tili darslarida ham juda muhimdir. Darslarda ko'rgazmali, tarqatmali materiallardan va didaktik o'yinlardan foydalanishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning mavzuni o'rganishlarida ularning diqqatini toplash, darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, shu bilan birga dars samaradorligini yanada oshirish, o'zlariga bo'lgan ishonchni uyg'otish hamda ko'rgazmalilik va tarqatmalilik doirasida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat. Shu o'rinda, muhtaram Prezidentimizning «Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq», degan fikrlarlari bejiz aytilmagan, bu so'zimizning isbotidir. Ko'rgazmali materiallar yordamida bir vaqtning o'zida muhokama qilinayotgan savol eshitish, axborotni ham eshitish, ham ko'rish orqali qabul qilish, shubhasiz, bu ta'lim oluvchilarning kuchli bilim olishlariga yordam beradi va dars samarali o'tadi. Ko'rgazmali qurollarning turli xil ko'rinishlari mavjud, shunday ekan o'qituvch mavzuga mos bo'lgan ko'rgazmali qurollar va didaktik o'yinlarni tanlashi juda muhimdir. Mavzuga mos ravishda tanlangan bunday ko'rgazmali qurollar dars samaradorligiga ijobiy natija bermaydi, aksincha salbiy oqibatlarga olib keladi. Ko'rgazmali qurollarning ijobiy jihatlaridan yana biri shuki, o'quvchilar dars davomida zerikmaydilar, qolaversa darsga nisbatan qiziqish uyg'onadi. Tarqatmali materiallar ta'lim oluvchilarning bilimini tekshirish va nazorat qilishda ham keng qo'llaniladi. Bunda nazorat varaqalari ko'rinishida tayyorlangan test savollari, savolnomalar, krossvordlar, jadvallar, chizmalar, masala va mashqlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, tarqatmali materiallardan ko'rgazmali qurol sifatida ham foydalanish mumkindir. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish metodikasining emas, balki xat-savod o'rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikalarini ham o'z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, boshlang'ich sinflarga ham mavzuga mos bo'lgan ko'rgazmali qurollardan foydalanish samaralidir. Buyuk allomalarimiz ham bu haqida o'z fikr mulohazalarini bildirib ketganlar. Buyuk astronom bobokalonlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy bobomiz shunday fikrlarini aytadi "Bizning maqsadimiz o'quvchilarni toliqtirib qo'ymaslikdir, bir mavzuni qayta-qayta takrorlab o'qib berish o'quvchini zeriktiradi, xotirasini susaytiradi. Agar o'quvchi bir mavzudan boshqa bir yangi mavzuga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bir bog' boshlanadi. Bola ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa bolaga rohat bag'ishlaydi, deb behuda aytilmagan", - deydi. Buni bejizga aytib o'tmagan, ona tili darslarida ham turli xil metodlar va ko'rgazmali qurollar bilan olib borilsa dars samaradorligi oshadi va bolalar xuddi bobomiz aytganidek turli xil bog'larda

sayr qilgandek bo‘ladi. Abu Nasr Forobiy Ta’lim va tarbiya berishda “...ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko‘ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm, shogird dilida ustozga nisbatan nafrat uyg’otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq ko‘ngilli bo’lsa, shogird uni mensimay qo’yadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Shuning uchun o’qituvchi bolalarning fe'l-atvoriga qarab ta’lim-tarbiyaning “qattiq” yoki “yumshoq” usullaridan foydalanishi mumkin” deydi. Shunday ekan o’qituvchi o‘quvchilarning psixologiyasini ham bilish muhimdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Milliy o‘quv dasturda ta’lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo‘yicha ta ‘kidlangan ko’rsatmalar, uzlusiz ta’limni ta’m inlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ko’rgazmali va tarqatmali materiallarni ona tili darsi va boshqa turli xil darslarda qo’llash , amaliy mashg’ulotlar jarayonida boshqa barcha metodlar bilan birga qo’llab, dars samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud. Ushbu imkoniyatdan qanday foydalanish o’qituvchining pedagogik mahoratiga bog’liq.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008.
- 2.Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi.
3. O‘zbekiston Respublikasining “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi”;
- 4.Ruzikulovna, Shabbazova D. "The Importance of Personal Value Approach Methodology in Primary School Literacy Classes." JournalNX, vol. 7, no. 11, 2021, pp.
- 5.Shabbazova, D. (2023). PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE LITERACY OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS BASED ON A PERSONAL VALUE APPROACH. Academia Science Repository, 4(05), 12-19.
6. Ruzikulovna, S. D. (2023). Analysis of the Level of Valuable Approach to Primary Class Students. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 227-230.
- 7.Ruzikulovna, S. D. (2021). PRIMARY EDUCATION TEACHER AND STUDENT TEACHING ACTIVITIES AND SYSTEM OF PERSONAL VALUES. European Scholar Journal, 2 (7), 32-33.
- 8.Shabbazova, D. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF O ‘QUVCHILARI SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SHAXSIY QADRYATLI YONDASHUV. MONOGRAFIYA. Termiz-2023. Interpretation and Researches, 1(1).
- 9.Tursunov J. TA’LIMIY LUG ‘AT YARATISH TAMOYILLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 384-393.
10. Jahongir T. TA’LIMIY LUG ‘AT YARATISH TAMOYILLARI. – 2022.

- 
11. Butayorova M. K. THE IMPORTANCE OF POSITIVE RELATIONSHIPS IN THE FORMATION OF THE PERSONALITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 121-125
12. Toshtemirovna R. G., Butayorova M. METHODOLOGICAL BASES FOR THE USE OF MODERN TEACHING TECHNOLOGIES IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE IN PRIMARY GRADES //International Journal of Pedagogics. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 88-91..
13. Butayorova M. X. O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish-O'quvchilar shaxsini shakllantirishning muhim omili sifatida //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 113-118.
14. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusova, M.Abuzalova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent - 2009;
15. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tilshunoslik>;
16. <https://azkurs.org/samarqand-davlat-universiteti-v6.html>?